

DEHQONOBOD TUMANINING IQTISODIY TASNIFI

Loqayeva Zebo

Qarshi Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dehqonobod tumaning iqtisodiy va ijtimoiy holati, tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari, tumanning sanoat va investitsiya salohiyatini oshirib, aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan muammo va yechimlarning tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: karyer, kompleks rivojlantirish, investitsiya, kontinental, eksport, investitsiya.

Аннотация: В данной статье описывается экономическое и социальное положение Дехганабадского района, анализ проблем и пути их решения, направленные на повышение промышленного и инвестиционного потенциала района и повышение уровня жизни населения.

Ключевые слова: карьер, комплексное освоение, инвестиции, континентальный, экспорт, инвестиции.

Abstract: This article describes the economic and social situation of Dehganabad district, the analysis of problems and solutions aimed at increasing the industrial and investment potential of the district and improving the living standards of the population.

Key words: quarry, complex development, investment, continental, export, investment.

Dehqonobod tumani O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida joylashgan bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda G'uzor tumani bilan birlashtirilgan. 1971-yil 31-avgustda qayta tuzildi). Dehqonobod tumani viloyatning janubi-sharqida joylashgan. Shimoli-g'arbda G'uzor tumani, shimoli-sharqda Qamashi tumani, janubi-sharqda Surxondaryo viloyati, g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni 4 ming km. kv. Aholisi 153,1 ming kishi (2022-y). Dehqonobod tumanida 1 ta shaharcha (Qorashina), 14 qishloq fuqarolari yig'ini (Beshqo'ton, Bibiqorasoch, Bozortepa, Bog'ichorboq, Duob, Obiravon, Oqirtma, Oqmachit, Oqrabot, Oqtosh, Qizilcha, Qirqulloch, Qorashina, Qo'rg'ontosh) bor. Markazi Qorashina shaharchasi.

Tabiat: Relyefi o'rtacha balandlikdagi tog'lar (Hisor tizmasining g'arbiy tarmoqlari — Bobosurxon, Qorasirt), past tog'lar (Oqtosh, Sayfi, Kesik, Usmontov, Tepaqo'rg'on) va tog'oldi qiya tekisliklaridan iborat. Tumanda neft, gaz, osh tuzi (Boybichakon, Govxona), kaliy tuzi (Odamtosh, Tepaqo'ton) va qurilish materiallari (ohaktosh, shag'al, gips) mavjud. Iqlimi kontinental iqlim. Yanvarning o'rtacha

harorati -0,6 °C, iyulniki -28,4°C. Yiliga o‘rtacha 277 mm yog‘in tushadi. Tuman hududidan G‘uzor daryosining irmoqlari: Katta O‘radaryo va Kichik O‘radaryo oqib o‘tadi. Tumanning janubi-g‘arbiy qismida yozda qurib qoladigan Qizilcha va Gajaksoy soylar bor. Pachkamar, Dehqonobod suv omborlari qurilgan. Dehqonobod tumanining tog‘li qismida yupqa tog‘-qo‘ng‘ir tuproq, tog‘oldi va tekislik qismida och bo‘z tuproq (ba’zan sho‘rxok va qumoq tuproqlar) uchraydi. Tuman hududida archa, zarang, uchqat o‘sadi. Past tog‘ etaklarida pistazorlar bor. Shuvoq, sho‘ra, yantoq, efemerlar o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan tuman tog‘li qismida qoplon, ayiq, qobon, tog‘ echkisi, bo‘ri, tulki, jayra, sug‘ur va boshqalar uchraydi. Kemiruvchilardan kalamush, sichqon, qushlardan kaklik va boshqalar yashaydi.

Tumanning Aholisi asosan o‘zbek va tojiklardan iborat. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km.kv ga 38,3 kishi. Shaharliklar 28,8 ming kishi, qishloq aholisi 124,3 ming kishi (2022-yil).

Dehqonobodning Iqtisodiyoti- tumandagi eng yirik korxona Dehqonobod kaliy zavodi hisoblanadi. Zavod 2011-yil 6-iyuldan buyon kaliyli tuzlar ishlab chiqarmoqda. Mahsulotlarning 80 foizi chet elga eksport qilinmoqda. DKZ 2021-yil 1-dekabr holatida 447,85 mldr. so‘m jami tushum, 7,90 mln. so‘m sof foyda olgan . Tumanda bir qator kichik xususiy sexlar ham mavjud . Dehqonobod tumani xo‘jaligining asosini chorvachilik va dehqonchilik tashkil qiladi. Ekin maydon 47,4 ming ga, ko‘p yillik daraxtzorlar 2,1 ming ga, yaylovlar 237,4 ming ga. Yaylovlarda qorako‘l qo‘ylari, hisori qo‘ylar, angor zotli echkilar, qoramol, yilqi boqiladi. Dehqonobod tosh kesish karyeri, junni qayta ishlash zavodi, konserva tayyorlash seksi mavjud. Tuman hududidan Katta O‘zbekiston trakti, G‘uzor — Qumqo‘rg‘on temir yo‘l o‘tgan.

Dehqonobod tumaning Ijtimoiy sohalari (2000/01) o‘quv yilida 88 ta umumiy ta’lim maktabi, kasb-hunar kolleji, internat litseyi faoliyat ko‘rsatdi. Tumanda „Tog‘ go‘zali“ ashula va raqs ansamбли, „Qo‘ng‘iroт“ folklor etnografik ansamбли, 27 ta kutubxona, 11 ta qishloq klubи bor. Markaziy kasalxona, 6 ta qishloq uchastka shifoxonasi, 56 ta qishloq feldsher-akusherlik shoxobchasi, 7 ta qishloq vrachlik punkti, 7 ta dorixona mavjud bo‘lib, 650 ta ga yaqin oliy va o‘rta ma’lumotli tibbiy xodim ishlaydi. 1972-yildan „Dehqonobod ovozi“ tuman gazetasi chiqadi.

2019-2020 yillarda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi doirasida mazkur hududda bentonit va dolomit xomashyosini qazib olish, ko‘prik va avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash hamda tumanning sanoat va investitsiya salohiyatini oshirib, aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan yana yuzlab loyiҳalar hayotga tatbiq etildi. Shu yil 22 iyul kuni hukumat qarori bilan tasdiqlangan mazkur dastur umumiy qiymati qariyb 454 milliard so‘nni tashkil qiladigan 364 ta loyiҳani o‘z ichiga olgan, - deydi Dehqonobod tumani iqtisodiyot va sanoat bo‘limi boshlig‘i Ulug‘bek Hamrayev. - Shundan 119 tasi uchta muhim soha - sanoat (26), xizmat ko‘rsatish (65) va qishloq xo‘jaligida (28) amalga

oshirilib, loyiha tashabbuskorlarining mablag'i (71,4 milliard so'm), bank kreditlari (50,1 milliard so'm) va xalqaro kredit liniyalari (505 ming AQSH dollari) hisobidan moliyalashtiriladi. Masalan, "Bentomir" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 1 milliard so'm evaziga ro'yobga chiqariladigan investitsiya loyihasi doirasida tumanimiz hududida joylashgan kondan bentonit tuprog'i, ya'ni burg'ulash qorishmalari, yog'ni tozalash uchun zarur vosita va qishloq xo'jaligida o'simliklar uchun mineral ozuqa manbai sifatida qo'llaniladigan agrotexnik xomashyo qazib olish mo'ljallanmoqda. Dasturning asosiy komponentlaridan biri - yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral xomashyoni sanoat yo'li bilan chuqur qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihalarining manzilli ro'yxatiga kiritilgan tashabbuslar ichida "Big bio impeks" mas'uliyati cheklangan jamiyati rejalashtirgan ishlar ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bu korxona 3 ming hektar lalmi yer maydonlarida kovrak o'simligini ekish va uning shirasi (smolasi)ni qayta ishlashni yo'lga qo'ymoqchi. "Samadov Baxtiyor Ravshanovich" xususiy korxonasi esa Dehqonobodda mo'lbo'lgan yana bir mineral xom ashyo - dolomit qazib olish va qayta ishlashni tashkil etish niyatida. Hozirgi paytda bu tuman sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha viloyatimiz hududlari orasida nisbatan yuqori - yettinchi o'rinda tursa-da, bu natijaga asosan bitta korxona - Dehqonobod kalyavodi hisobidan erishilmoqda. Hududda kichik biznesning sanoatdagi ulushi bor-yo'g'i 10,4 foizni tashkil qiladi, ya'ni tumanda mazkur sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'ndan to'qqiz qismi ulkan zavod hissasiga, qolgan bir qismi esa kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Faoliyat ko'rsatayotgan (61) va yangi tashkil etilgan (14) sanoat korxonalari soni bo'yicha esa Dehqonobod shu yil 1 iyul holatida viloyatda tegishli ravishda oxiridan ikkinchi o'rirlarni egallab kelmoqda. Viloyat statistika boshqarmasi tarqatgan ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning birinchi yarmida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi bo'yicha Dehqonobod tumani 87,5 milliard so'mlik ko'rsatkich bilan vohamiz hududlari orasida oxirgi o'rindan birini egallab turibdi. Qolaversa, shu yil yanvar-iyun oylarida Dehqonobod tumanida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 605,9 ming so'mga teng bo'lган va bu viloyat bo'yicha qayd etilgan tegishli ko'rsatkich (1 million 216,7 ming so'm)dan ikki baravar kamdir. Tumanni kompleks rivojlantirish, albatta, ijtimoiy soha infratuzilmasining takomillashtirilishini ham nazarda tutadi. Dasturga bu jabhaga taalluqli 68 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularning umumiyligi qiymati 131,3 milliard so'mni tashkil qiladi. Ushbu mablag' evaziga tumanda 10 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 25 ta umumta'lim va 20 ta sog'liqni saqlash obyekti, 3 ta madaniyat markazi, 2 ta sport inshooti hamda yana bir qator obyektlar quriladi, rekonstruksiya qilinadi va mukammal ta'mirlanadi. E'tiborlisi, Oqrabot qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi Oqsaroy va Dehqonobod shaharchasidagi "Rabot" tarixiy obidasini mukammal ta'mirlashga 585 million so'm ajratilmoqda.

Xulosa: Dehqonobod tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risidagi qarori talabiga ko‘ra, mazkur dastur parametrlarining o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida tumandagi sektorlar rahbarlari o‘zlariga biriktirilgan hududlar kesimida loyiha tashabbuskorlariga ko‘maklashib, yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rishlari, shuningdek, tegishli xulosa va takliflarini berib o’tishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidullayevich O. O. JAHON AHOLISINING TABIIY VA MEXANIK KO’PAYISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONI SHUNINGDEK SHAHARLAR RIVOJLANISHI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 466-468.
2. Safarov I. B., Omonullayev O. H. HAZRATI BASHIR QISHLOG ‘INING ZIYORAT TURIZIMI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 4 SPECIAL. – С. 193-196.
3. Zebo O. O. J. KASBI TUMANING AGROLANDSHAFTI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 34. – №. 5. – С. 8-11.
4. Og’abek O., Malika A. TRANSPORT GEOGRAFIYASI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 35. – №. 5. – С. 175-178.
5. <https://qashqadaryo.uz/oz/nview/dehqonobod-tumanini-kompleks-rivolantirish-dastur-barcha-sohalarni-qamrab-olgan-03-08>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dehqonobod_tumani